

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI YO'NALISHI TALABALARINING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Oxunjonova Faxriniso

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Hayitova Muxlisa- AQXAI, talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda ta'lim tizimining asosiy bosqichi hisoblanuvchi – oliy ta'limining talabalarida yozma nutqiy malaka ko'nikmasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Integrativ, til, yozma nutq, metod, metodika, takomillashtirish, ta'lim, yozuv, yozma nutq.

Ta'lim tizimining isloh qilinishi bugungi zamonning ham eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, ta'lim tizimi jamiyat rivoji uchun asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, bilim darajasi internet orqali takomillashuv jarayonida ularga ta'limning yangi metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonga qiziqishini so'ndirmaslik lozim. Hozirgi kunda "integratsiyalashuv" atamasi barcha ta'lim bosqichlarida eng faol qo'llanilayotgan istiloh hisoblanib, mazkur so'z ma'nosi to'raligicha amaliyotda o'z ifodasini topmoqda.

Yozma nutq masalasi, savodxonlikni shakllantirish kabi masalalar ta'lim tizimining asosiy muammosi sanaladi. Milliy til yozma savodxonligini shakllantirish va takomillashtirish boshlang'ich hamda keyingi ta'lim bosqichining avvalgi masalasidir. Bu haqda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9- moddasida ham bayon etilgan[1]. Yozma nutq madaniyatini shakllantirish to'g'risida esa "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" PF- 6084- sonli farmonida[2], Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10- fevraldagi 61- sonli qarorida o'zining amaliy ifodasini topgan. Mazkur qonunlar natijasi sifatida yozma nutqning jonli tilga yaqinlashishi va lisoniy savodsizlikni bartaraf etishini e'tirof etish mumkin.

Yozma nutq savodxonligi boshlang'ich sinflarda turli metodlar yordamida shakllantiriladi. Xususan, eshitib yozish, lug'at asosida, didaktik o'yinlar imlo savodxonligini takomillashtirishga xizmat qiladi.


Integrativ ta'lim — o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ta'limning imlo savodni takomillashtirishning asosiy jihati shundaki, talabaning jonli til bilan yaqindan, mukammal bilishiga xizmat qiladi.

Chunonchi, integratsiya fanlarning ko‘r- ko‘rona birlashuvi emas, balki nazariy bilimlar asosida muayyan amaliyot natijasidir.

Pedagog U.Musayev integratsiyaning quyidagicha turli darajalarini taklif etadi: mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya; bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv-materiali keyingisini to‘ldiradi.[3:31] Talabalarining imlo savodxonligini rivojlantirish metodikasini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- individual yondashuv asosida;
- rasmi ko‘rgazmalar orqali matn tuzish;
- rasmlar orqali o‘zbek xalq maqollarini topish;
- matn tahriri orqali imlo savodxonligini shakllantirish;
- keys-stadilar yordamida to‘g‘ri yozishni takomillashtirish;

Individual yondashuv asosida talabanning har biri bilan alohida shug‘ullanib, har bir imlo qoidasini yozuv tamoyillari orqali tushuntiriladi. Bunda turli kartochkalar yordamida tushuntirish samarali usul sanaladi:



Quyosh bepoyon olamga tinimsiz yorug‘lik tarqatib turadi. Bu yorug‘likning bir qismigina yerga keladi. Yerdagi butun tirik tabiat – o‘simlik va hayvonlar, shuningdek, odamzod quyosh yorug‘ligi tufayli mavjuddir. Faraz qilaylik, Quyosh birdaniga g‘oyib bo‘lib qoldi. U holda yerda qanday o‘zgarishlar yuz berishi mumkin? Avvalo, hamma yoqni tim qorong‘ilik qamrab oladi. Osmondagi Oynning yorug‘ligi ham yo‘qoladi. Chunki oy o‘zidan yorug‘lik chiqarmaydi, u Quyosh nurini ko‘zgu kabi bizga qaytaradi, xolos.

Zamonaviy ta’lim tizimida integratsiyaga asoslangan darslarni amaliyotga tatbiq etishda samarali ta’lim metodlaridan unumli foydalanilmoqda. Shunday usullardan biri – “Insert” usulidir. Ushbu metod asosida talabanning imlo savodxonligini shakllantirishning eng qulay yo‘lidir.

“V”- mazkur belgi qarshisiga imlosini biladigan so‘zlar yoziladi: bepoyon, hayvonlar...


“+” - imloda ikkilanayotgan soʻzlar yoziladi: hamma yoq, yorugʻlik...

“-” - notoʻgʻri yozilgan soʻzlar yoziladi: oy, yer...

“?” – imlosini bilmaydigan soʻzlar yoziladi.

Yozma nutq madaniyatining yana bir muammoli jihati talabalarning “paronimlar” haqida atroflicha maʼlumotga ega emasligi qishloq xoʻjaligi sohasida imlo savodxonligini pasayib ketishiga olib keldi: xam-ham, xil-xil- hil-hil; yonilgʻi- yoqilgʻi, oʻtkazmoq-oʻtqazmoq va hakazo. Mazkur muammoni talabalarda bartaraf etish koʻnikmasini shakllantirish uchun keys-stadilardan foydalanish samarali usullardan biridir. Yaʼni, oldin qoidalar bilan tanishtirilib, soʻng sohaviy matn beriladi va ushbu matn orqali quyidagi topshiriqlar bajariladi.

Talabani imlo savodxonligini integrativlik asosida takomillashtirishning yana bir ijobiy jihati shundaki, ularning bilim koʻnikmalarini har tomonlama oshirishga, ularning kasbiy yoʻnalishiga yoʻnaltirishga beqiyos xizmat qiladi. Chunonchi, talabani imloviy kamchiligi oʻzbek alifbosidagi “h” va “x” undoshini farqlay olmaslikdir. Talabalardagi mazkur lisoniy boʻshliqni bartaraf etish uchun “Baliq skleti” metodi juda ham samarali.



Bunda talabalar guruh tarzida shakllantirilib, har bir guruh aʼzolariga atamalar taqdim etiladi va shu metod asosida soʻzlar ajratiladi.

Pedagogikaning har bir metodi talabani berilayotgan bilimga qiziqishini oshiradi hamda oʻqituvchining maqsadi- mavzuni tushunarli boʻlishini, ushbu imlo xatolarni qayta takrorlamaslikni oʻrgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. <https://lex.uz/docs/-5058351>

3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда педагогик технологиялар. – Т., 2008.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to'ldirilgan 3-nashri. – T.: Ilm Ziyo, 2010
5. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida keltirilgan shaxs nomlarining qahramon fe'l-atvoriga daxldorligi nazarova - Academic research in educational sciences, 2021
6. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
7. Rahmanqulov, S. (2024). O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DEVIANT XULQ ATVORINI O'RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARNING O'RNII. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9850>
8. RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.
9. Abduhamidovich, R. S. (2023). O'ZBEKISTONDA MILLIY TA'LIM TIZIMINI CHET EL TA'LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Conferencea, 97-101.
10. Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMIK MOBILLIK-BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131.